

**BADIIY MATNDA QAHRAMONLARNING RUHIY HOLATI VA NUTQ
DINAMIKASINING PSIXOLINGVISTIK TALQINI
(A.QAHHOR HIKOYALARI MISOLIDA)**

Fazliyeva Adolatxon Jamolxonovna,
Namangan davlat universiteti v.b.dotsenti
adolatxonjamolxonovna@gmail.com

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada Abdulla Qahhor hikoyalari asosida badiiy matnda qahramonlarning ruhiy holati va nutq dinamikasining psixolingvistik talqini o‘rganiladi. Tadqiqotda nutqning psixologik omillar bilan bog‘liqligi, xususan, stress, qo‘rquv va konflikt holatlarida nutqning o‘zgarishi tahlil qilinadi.*

***Kalit so‘zlar:** psixolingvistika, nutq dinamikasi, ruhiy holat, affektiv nutq, badiiy matn, konflikt, stress, qo‘rquv, nutq fragmentarlashuvi, dialog, sukunat.*

***Аннотация.** В данной статье на материале рассказов Абдуллы Каххара рассматривается психолингвистическая интерпретация психического состояния персонажей и динамики их речи в художественном тексте. В исследовании анализируется взаимосвязь речи с психологическими факторами, в частности изменения речи в условиях стресса, страха и конфликта.*

***Ключевые слова:** психолингвистика, динамика речи, психическое состояние, аффективная речь, художественный текст, конфликт, стресс, страх, фрагментация речи, диалог, молчание.*

***Annotatsion.** This article examines the psycholinguistic interpretation of characters' mental states and speech dynamics in literary texts based on the short stories of Abdulla Qahhor. The study analyzes the relationship between speech and psychological factors, particularly the changes in speech under conditions of stress, fear, and conflict.*

***Kew words:** psycholinguistics, speech dynamics, mental state, affective speech, literary text, conflict, stress, fear, speech fragmentation, dialogue, silence*

Kirish. Badiiy matnda qahramon ruhiy holatini ochishda til va nutq vositalari muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, psixologik jarayonlarning nutq orqali ifodalanishi masalasi zamonaviy lingvistika va psixologiya kesishgan nuqtada – psixolingvistika doirasida keng o‘rganilmoqda. Psixolingvistika inson tafakkuri, hissiyoti va nutqi o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikni tahlil qiladi [1].

Abdulla Qahhor hikoyalari o‘zbek adabiyotida realistik tasvir, ijtimoiy tanqid va psixologik chuqurligi bilan ajralib turadi. Uning “Bemor”, “Dahshat” va “O‘jar” hikoyalarida qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy iztiroblari va konflikt holatlari aynan nutq dinamikasi orqali ochib beriladi. Bu esa mazkur asarlarni psixolingvistik tahlil uchun muhim manbaga aylantiradi.

Bugungi kunda badiiy matnni tahlil qilishda faqat lingvistik emas, balki psixologik yondashuv ham zarur hisoblanadi. Chunki, nutq — bu faqat aloqa vositasi emas, u insonning ichki dunyosining aksidir, ayniqsa, stress va konflikt holatlarida nutq o‘zgaradi.

Abdulla Qahhor hikoyalari aynan shu jihatdan nutq orqali psixologiyani ochib beruvchi noyob materialdir.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

- Qahhor hikoyalarda nutq **psixologik indikator** sifatida talqin qilinadi;
- nutq dinamikasi (qisqarish, takror, uzilish) tizimli tahlil qilinadi;
- “nutq → hissiyot → konflikt” modeli taklif etiladi.

Shu boisdan tadqiqot quyidagi metodlar asosida olib borildi:

- **psixolingvistik tahlil**
- **kontekstual tahlil**
- **diskurs tahlili**
- **qiyosiy tahlil**

Nutq psixologiyasi va til falsafasi yo‘nalishidagi yetakchi olimlarning nazariy qarashlariga tayangan holda amalga oshirildi. Xususan, A.A. Leontyev nutq faoliyati nazariyasi [2], I.A. Zimnyaya nutq psixologiyasi [3] va A.R. Luriya til va ong munosabati [4] bo‘yicha ishlab chiqilgan konsepsiyalar badiiy matndagi qahramon nutqini psixologik jihatdan tahlil qilishda metodologik asos bo‘lib xizmat qildi.

Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, inson nutqi uning ruhiy holatiga bevosita bog‘liqdir. Kuchli hissiy holatlarda nutq qisqaradi, fragmentlashadi, emotsional rang oladi.

Masalan, stress holatida inson murakkab gaplardan ko‘ra qisqa va tezkor ifodalarga o‘tadi [5]. Bu holat Abdulla Qahhorning “Dahshat” hikoyasida yaqqol ko‘rinadi:

“ O‘likning joni yo‘q! O‘likning joni yo‘q!”[6]

Ushbu gapda **qisqa va sodda tuzilma** (murakkab gap yo‘q), **takroriylik** (bir xil ibora qayta-qayta ishlatilgan), **hissiy zo‘riqish** (qo‘rquv holati). Bu yerda qahramon murakkab fikr bildirmaydi, balki: o‘zini ruhiy jihatdan tinchlantirish uchun bir xil iborani takrorlaydi.

Psixologiyada bu holat: **stress reaksiyasi va nutqning avtomatlashuvi** sifatida izohlanadi. Ya‘ni, kuchli hissiy zo‘riqish sharoitida inson ongli ravishda murakkab nutq qurishga intilmaydi, aksincha, oldindan shakllangan, sodda va tezkor ifodalarga murojaat qiladi. Natijada nutqning sintaktik tuzilishi soddalashadi, takroriylik kuchayadi va ifoda avtomatik tus oladi.

Shu jihatdan nutq dinamikasi tushunchasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Nutq dinamikasi psixolingvistikada nutqning tezligi, tuzilishi, davomiyligi va emotsional rangining o‘zgarishini anglatadi. Inson ruhiy holatining o‘zgarishi bevosita nutq dinamikasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Xususan, stress va affektiv holatlarda nutq qisqaradi, fragmentlashadi va avtomatlashgan shaklga o‘tadi. Shu bois nutq dinamikasi

badiiy matnda qahramon ruhiy holatini aniqlashning muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Nutq dinamikasi – bu nutqning, tezligi, tuzilishi, ohangi, davomiyligi o‘zgarishidir. Badiiy matnda bu quyidagicha namoyon bo‘ladi, uzilgan gaplar, takrorlar, dialog keskinligi, pauzalar orqali namoyon bo‘ladi. Ayniqsa, qahramonning ruhiy holati o‘zgargan sari nutq dinamikasi ham sezilarli darajada o‘zgaradi.

Shu jihatdan konflikt holatlari nutq dinamikasining eng faol va keskin namoyon bo‘ladigan muhitidir.

Konflikt — bu qarama-qarshi manfaatlar to‘qnashuvi bo‘lib, u nutqda, ayniqsa, kuchli ifodalanadi. Bunday vaziyatlarda nutq keskinlashadi, qisqaradi va emotsional rang oladi. Natijada dialoglar orqali qarama-qarshilik ochiq namoyon bo‘lib, nutq qahramonlarning ichki ruhiy holatini ifodalovchi asosiy vositaga aylanadi. Bu jarayon psixologiyada affektiv nutq deb ataladi [7].

Affektiv nutq — bu kuchli hissiy holat (g‘azab, qo‘rquv, stress) ta’sirida yuzaga keladigan, nazoratsiz, keskin va qisqa nutq shaklidir.

Masalan, Abdulla Qahhorning “O‘jar” hikoyasida quyidagi nutq bunga yaqqol misol bo‘la oladi:

“Shaxmatni ko‘proq o‘yna, itvachcha!” [8]

Ushbu nutq qisqa va keskin tuzilishga ega bo‘lib, unda agressiv ohang hamda haqorat elementlari mavjud. Qahramon vaziyatni mantiqan tahlil qilish o‘rniga darhol hissiy reaksiya bildiradi, natijada nutq nazoratdan chiqib, affektiv xarakter kasb etadi. Shu bois bu kabi nutq shakli kuchli emotsional zo‘riqish natijasida yuzaga keladigan affektiv nutqning tipik ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Bu yerda qahramon (Qutbiddinov) vaziyatni tahlil qilmaydi, mantiqiy izoh bermaydi, darhol hissiy reaksiya bildiradi, bu affektiv nutqning klassik ko‘rinishidir.

Bunga qarama-qarshi holat esa Abdulla Qahhorning “Bemor” hikoyasida kuzatiladi, unda ruhiy iztirob nutqning keskinlashuvi orqali emas, aksincha, uning sustlashuvi va sukunat orqali ifodalanadi.

“Bemor” hikoyasida nutqdan ko‘ra sukunat ustun bo‘lib, bu qahramonlarning kuchli psixologik bosim ostida ekanligini ko‘rsatadi. Masalan:

“Hammayoq jim. Faqat pashsha g‘ing‘illaydi, bemor ingraydi...” [9]

Ushbu parchada nutqning yo‘qligi, ya’ni sukunatning ustunligi orqali ichki iztirob yanada kuchliroq ifodalanadi. Bu holat psixolingvistik jihatdan shuni anglatadiki, kuchli ruhiy bosim sharoitida nutq kamayadi, ba’zan esa butunlay yo‘qolib, uning o‘rnini tovushlar va jimlik egallaydi. Bu yerda nutq yo‘q faqat fonetik tasvir bor bu “nol nutq” modeli hisoblanadi.

Bemor nutqi: “...endi tuzukman...” [10] qisqa, zaif, uzilgan, bu o‘lim oldi nutqidir.

Bola nutqi:

“Xudoyo ayamdi daydiga davu beygin...” [11] takroriy, emotsional, sodda, bu affektiv nutqning eng sof ko‘rinishidir.

Bemor hikoyasida kuzatilgan ushbu nutq shakllari ruhiy iztirob va zaiflik bilan bog‘liq bo‘lsa, “Dahshat” hikoyasida esa nutq dinamikasi qo‘rquv va vahima ta‘sirida keskin o‘zgaradi.

Abdulla Qahhor hikoyalari psixolingvistik jihatdan nihoyatda boy material hisoblanadi. Ularning asosiy xususiyati shundaki, qahramonlarning ruhiy holati bevosita nutq orqali emas, balki nutq dinamikasi orqali ifodalanadi.

“Bemor” hikoyasida nutqning sustlashuvi va sukunat orqali iztirob ifodalansa, “Dahshat”da qo‘rquv nutqni takroriy va fragmentar shaklga keltiradi. “O‘jar” hikoyasida esa konflikt nutqni keskin, agressiv va qarama-qarshi shaklga olib keladi.

Xulosa. Shunday qilib, Qahhor ijodida nutq:

- psixologik indikator
- ijtimoiy qarshilik vositasi
- ichki kechinmalar ifodasi

sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda nutqni tahlil qilish orqali nafaqat lingvistik, balki psixologik va ijtimoiy jarayonlarni ham chuqur anglash mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Леонтьев А.А. Психоллингвистика. – Москва: Наука, 1999.
2. Зимняя И.А. Психология речевой деятельности. – Москва, 2001.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. – Москва: Прогресс, 1979.
4. Qahhor A. Tanlangan asarlar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 1987. (81–85-betlar).
5. Шахранович А.М. Основы психологии. – Москва, 2004.
6. Виноградов В.В. Теория языка и стиля. – Москва, 1971.
7. Karimov N. O‘zbek adabiyoti tarixi. – Toshkent, 2008.
8. Yo‘ldoshev V. Badiiy matn lingvistikasi. – Toshkent, 2010.
9. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent, 2012.
10. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – Toshkent, 2008.
11. Рубенштейн С.Л. Основы общей психологии. – Москва, 1989.